

Abduraxmonov Abdulvositbek Nurmuhammad o'g'li
Andijon davlat chet tillari institute magistranti
Tel: +998971659222

BRAYL YOZUVINING PAYDO BO'LISHI
(In'omga aylangan taqdir zarbasi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'zi ojizlar uchun yaratigan Brayl yozuvining asoschisi Lui Brayl hayoti va maxsus yozuvning paydo bo'lishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Brayl, bo'rtma yozuv, relef, grafika, kalligrafiya, zulmat.

Abstract: This article talks about the life of Louis Braille, the founder of Braille for the blind, and the emergence of special writing.

Key words: Braille, embossed writing, relief, graphics, calligraphy, darkness.

Ko'z nuri ilohiy ne'mat. Lekin qay bir sabablarga ko'ra ko'rish qobiliyatidan ajragan insonlar ham o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida sezishlari, hamda o'zlari qiziqqan sohalarda bilim olib, faoliyat yoritishlari uchun o'tmishda ko'p insonlar harakat qilishgan. Ko'z nuridan ayrilib ham bashariyat xotirasida o'chmas iz qoldira olgan shunday insonlar borki, ularning amalga oshirgan ishlari, hayot yo'llari hammaga o'rnak bo'la oladi. Shunday insonlardan biri Lui Brayl bo'lib, u tufayli ko'zi ojiz insonlar hozirda kitob o'qiy oladilar. Ko'zi ojizlar uchun Brayl alifbosining yaratilishiga harbiy ishlanma sabab bo'lgan. Sharl Barbe Napoleonning iltimosiga binoan relef nuqtalaridan iborat alifbo yaratgan. Bu kechki payt askarlar o'rtasidagi aloqani soddalashtirish uchun kerak edi. Biroq, ushbu tizim amaliyotga joriy etilmagan, chunki uni o'zlashtirish juda qiyin bo'lgan.

Brayl o'sha alifbo tizimini takomillashtirib, bugungi kunda ham faol foydalaniladigan alifboni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Bugun deyarli har bir ko'zi ojiz inson o'qishni biladi va buning uchun ular yana bir shunday taqdir egasi – Lui Brayldan minnatdor bo'lishlari lozim.

In'omga aylangan taqdir zarbasi

Lui Brayl 1809 yil 4 yanvarda Fransiyaning Kuvre shaharchasida etikdo'z, egar sozlovchi usta Dyudovik oilasida dunyoga kelgan. Lui avvaliga nimjon bo'lib, keyinchalik tengdoshlari k yaxshi rivojlanadi. Lui Braylning onasi va opalari ertadan-kechgacha ishlaganliklari sababli jajji Luini otasining ustaxonasiga tashlab ketar edilar. Lui Brayl otasining baquvvat qo'llariga hayrat bilan tikilar va ish qurollarini o'ynar edi. 1812 yil Lui Braylning hayotida mudhish voqea yuz berdi. U otasining ustaxonasida o'tkir pichoq bilan o'zining o'ng ko'ziga jarohat yetkazadi. O'sha davr tabobati unchalik rivojlanmaganligi va jarohatlangan ko'zni steril bo'lmagan latta bilan bog'langanligi sababli uning ikkinchi ko'zi ham qisqa vaqt ichida ko'rmay qoladi. Luining otasi 3 yoshli o'g'ilchasini qarovsiz qoldiranligi va buning oqibatida jajji farzandi zulmat olamiga mahkum bo'lganligidan o'zini aybdor his qilib, hech qachon o'zini o'zi kechirolmashligini ta'kidlaydi. Ota-onasi kichkina o'g'lidan juda xavotirda edilar, chunki ko'zi ojiz odamlarni qayg'uli kelajak kutardi: ayanchli hayot va sadaqa orqali kun ko'rish. U 10 yoshga kirganda otasi Parijda ko'zi ojizlar instituti borligi haqida xabar topadi va 1819 yilda o'g'lini u yerga o'qishga olib boradi. Lui barcha fanlarni oson o'zlashtiradi, butun maktab kutubxonasini: grek, lotin, itngliz, italyan, ispan tillari grammatikasi bo'yicha qo'llanmalar va turli kitoblarni o'qib chiqadi. Lui Brayl bo'rtma (relef) xaritada mo'ljalni oson olar, ustaxonada ko'p hunarlar sirini tez o'rganar, skripka, violonchel va organda yaxshi chalar edi. 16 yoshida bola institut yonidagi kichik cherkovda organist

sifatida pullik lavozimga ega bo'ladi. U umrining ko'p qismini Parijdagi turli cherkovlarda organchi bo'lib xizmat qilgan.

Institutdagi ta'lim tinglash va eslab qolishga asoslangan edi. Yozuv deyarli yo'q edi. O'qishni dastlabki yillari Lui Brayl hamma qatori "Unsial" alifbosida ta'lim oldi. Keyin Sharlb Barbening 36 xil kombinatsiyali, 12 bo'rtma harfdan iborat bo'lgan alifbosi joriy etildi. Mazkur alifbo avvaliga qorong'uda ham o'qish mumkin bo'lgan harbiy telegrammalarga mo'ljallangan edi. Lekin bu alifbo harbiy sohada unchalik muvaffaqiyat qozonmadi. Shundan so'ng Barbe o'zining yozuv usulini ko'zi oqizlarni o'qitish uchun moslashtirishga harakat qiladi. Bu alifboga ko'ra so'zlar orfografiya qoidalariga binoan emas, balki qanday talaffuz etlsa, shu tarzda yoziladi. Yozuv qurollari taxta, kvadrat shaklida o'yiqlar tushirilgan chizg'ich va grifellardan iborat edi. Barbe yozuvida kitob chop etilmagan. 12 yoshida Lui Brayl ko'zi oqizlar uchun alifbo yaratish bo'yicha tajribalarini boshladi. Braylda harbiylar qorong'ida foydalanuvchi yozuv tizimini o'zi kabilar o'qishi uchun qo'llash fikri tug'iladi va shuning ustida ish boshlaydi. U har bir bo'sh daqiqadan foydalandi, ba'zida butun tunni o'z tajribalariga sarfladi. U 15 yoshida o'z ishini to'liq yakunladi. Usul fransuz alifbosining har bir harfi nuqtalarning o'ziga xos tartibiga mos keladigan 6 ta ko'tarilgan nuqtaning turli kombinatsiyalaridan foydalanishdan iborat edi. Tinish belgilari va raqamlar ham ko'rsatildi. Tadqiqotlarini davom ettirib, Lui nota yozuvlari usulini moslashtirdi. 1825 yilda 16 yoshli Lui Braylda olti nuqtadan iborat avvalgilaridan tubdan farq qiladigan bo'rtma yozuv yaratadi. Yozuvini yaxshilash va tinish belgilari, raqamlar va musiqiy notalarni qo'shishni davom ettirgan holda, Brayl o'z tizimi uchun kichik "ko'rsatmalar" ni nashr etadi. 1829 yilda u o'z yozuvining dastlabki versiyasini institut kengashida ko'rib chiqish uchun taqdim etdi, ammo uning a'zolari yozuvni ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun o'qib bo'lmaydigan deb hisoblashdi. 1834 yilda Brayl o'z ixtirosini Parij san'at ko'rgazmasida namoyish qiladi. 1837 yilda butun jahon Brayl yozuvining oxirgi versiyasini ko'rdi. Ko'zi oqiz va zaif ko'ruvchilar Luining ixtirosini qaytadan tekshirishni talab qilishdi. Aynan o'sha paytda yangi yozuv baholandi va lotin harflarini relyef ko'paytirishning klassik tizimiga qaraganda qulayroq deb topildi va mazkur yozuvda chop etilgan birinchi kitob "Fransiyaning qisqacha tarixi" bo'ldi. Dastlabki kitoblar ancha yirik, og'irligi 9-12 kg.gacha bo'lgan. Lekin shunga qaramay Brayl yozuvining yengil o'rganilganligi orfografik qoidalarga qulay moslashgani va kombinatsiyalari oson yodda qolishi tufayli qisqa vaqt ichida shu qadar ommalashib ketdiki, o'zidan oldingi ikki yozuvni iste'moldan butunlay siqib chiqardi. Ko'zi oqiz ixtirochining ijod mahsuli darhol standartga aylandi. Brayl alifbosi nihoyat asos sifatida qabul qilinganiga qaramay, yosh ixtirochining hasadidan qiynalgan Barbe de la Serre o'zining "tungi maktubi" ni qabul qilishni davom ettirdi. Ammo bo'rtmada oddiy harflarni afzal deb bilgan ko'rish qobiliyatiga ega o'qituvchilar qat'iy edilar va ko'zi oqizlarning boshqa yozuvdan foydalanishiga qarshi edilar. Keyinchalik Brayl yozuvini ham Mun tizimiga, ham Nyu-York nuqta tizimiga almashtirishga yana urinishlar bo'ldi, ammo bu urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi.

Lui Brayl ko'zi oqizlar ta'lim tizimida ulkan o'zgarishlar yasadi, o'rganish oson bo'lgan yozuvni ishlab chiqishi bilan ularning ijtimoiy hayotdagi faolliklarini oshirdi. Ungacha ko'zi oqizlar faqat o'zlariga oid sohalaridagina ishlashimkoniyatiga ega edilar. Lui Braylning yozuvini sog'lomlar ham oson o'zlashtirgani bois ularning adabiyoti, ilmiy darsliklari keng ommaga tarqaldi. Bu ularga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi, bir xil bilimga egalik tuyg'usini uyhotdi va ko'zi oqizlar ishlashi mumkin bo'lgan sohalar adadini oshirdi.

Lui Brayl ilk o'qishga borgan chog'larida Parijdagi o'sha ko'zi oqizlar institutidagi shart-sharoit unchalik yaxshi emas edi. U o'qib yurgan kezlarida 26 yoshida sil kasalligiga duchor bo'ladi. Lekin kasallik ham Lui Braylning tinimsiz faoliyatini to'xtata olmadi. Yagona davo chorasi esa dam olish edi xolos. Lui o'z uslubini takomillashtirish ustida ishlashni davom ettirdi. Uning usulini ko'zi oqizlar bilmasligi, ko'zi oqizlar esa oddiy alifboni bilishi zarurligi haqida o'yladi. Uning ko'zi oqiz shogirdlari ko'zi oqiz oila a'zolari va do'stlari bilan muloqot qilishlari uchun u maxsus ignani o'ylab topdi, uning yordamida oddiy harflarni relyefda tasvirlash mumkin edi. Biroq, bu usul ko'p vaqt talab qildi.

Kasallik asorati uzoq yillar Lui Brayl tinkasini tark etmaydi. U og'ir betobligi sababli 1852 yilda 43 yoshida vafot etadi.

ADABIYOTLAR

1. STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF GERMAN YOUTH SLANG. IN Xudaberdiyevna. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 285–288.
2. COMPARATIVE ANALYSIS OF ISOMORPHIC AND ALLOMORPHIC ASPECTS OF COMPLIMENT CONCEPT IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. НМ Кодирова. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА 4 (2)
3. Jurayev Azuzbek Anvarovich. A BRIEF HISTORY OF GERMAN LITERATURE// INNOVATION IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 2 ISSUE 16,ISSN 2171-381X, SJIF 2023.5.305
4. АВ Омаджон ЗООФРАЗЕМАЛАРНИ ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ// Ijodkor o'qituvch// 2022/12/16
5. 2,659-664.
6. OB Azamov THE PLACE OF PHRASEOLOGICAL SYSTEM IN EUROPEAN LINGUISTICS AND EARLY PHRASEOLOGICAL STUDIES// Том 3 №1 2022/5/13 Международный журнал “Язык, методика, перевод”
7. Azamov O. ТИЛШУНОСЛИКДА ЗООНИМ КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИ ИЛК ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА ТАҲЛИЛ УСУЛЛАРИ// Results of National Scientific Research 2022/3 Volume 1| Issue 6 2022 SJIF- 4.431 ISSN: 2181-363. 1, 145-154
8. AO Burkhanovich COMMON ZOONYMS AND THEIR LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS (EXAMPLE OF UZBEK AND GERMAN LANGUAGES). International Multidisciplinary Journal for Research and Development, 2023/11/2